

## TARBIYA FANINI O'QITISHDA DARSLARDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION USULLAR, RIVOYATLAR, QIZIQARLI DIDAKTIK UYINLAR VA ULARNING SAMARASI

*Esonova Baxtigul Elmurodovna,  
Yunusobod tumani 247- maktab,  
Tarix, tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarbiya fanini o'qitishda darslarda qo'llaniladigan innovatsion usullar, rivoyatlar, kizikarli didaktik uyinlar va ularning samarasi

**Kalit suzlar:** interfaol usullar, dars jarayoni, individual, innovatsion usullar, rivoyatlar, qiziqarli didaktik uyinlar.

Ma'lumki, bugungi kunda o'qitish jarayonida o'quvchilar mustaqilligi ijodkorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi interfaol usullardan foydalanilmoqda. Ta'lim jarayonida yaxshi samara berayotgan ana shunday usullardan biri qiziqarli didaktik o'yinlardir. Didaktik o'yinlar nafaqat o'qitishning amaliy yo'nalishi kuchayishiga, balki o'quvchi va talabalarning dars jarayonida o'zlashtirayotgan nazariy bilimlarini mustahkamlanishiga olib keladi.

Ta'kidlash joizki, didaktik o'yinlarni tashkil etishdan oldin bu jarayonga puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Bunda asosiy e'tibor mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlardan mavzuga moslarini tanlash, mashg'ulotning qaysi bosqichida ularni amalga oshirilishini belgilash, o'yinning shartini o'quvchi va talabalarga aniq tushuntirish kabilarga qaratiladi.

Garchi, interfaol o'yinlar yangi bilimlarni chuqur bermasada, darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Didaktik o'yinlar o'zining tashkil etilish shakllariga ko'ra: individual (yakka), guruhli (kichik va katta guruhlar) va yalpi (butun sinf o'quvchilari ishtirokida) tarzida bo'ladi. Pedagog xodimlarni ta'lim jarayonidagi nazariy bilimlarni yanada rivojlantirish, ularda mustaqilfikrlash, muammoga ijodiy yondoshish layoqatlarini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan unumli foydalanish ijobiy samara beradi. Quyida didaktik o'yinlardan namunalar keltiriladi. "Hozir javoblik" o'yini, ushbu o'yinda o'qituvchi o'yin ishtirokchisining pedagogik bilim, tushunchalarini qay darajada o'zlashtirib olganligini sinab ko'radi. O'yinning shartiga ko'ra, boshlovchi tomonidan aytilgan pedagogik iboraning aksini o'quvchi yoki talaba tomonidan aytilishi zarur. O'yin jarayonida o'quvchi yoki talaba tomonidan aytilgan to'g'ri va noto'g'ri javoblar hisobga olib boriladi hamda reyting tizimi shkalasi asosida baholab boriladi. Namuna. O'yin mavzusi:

"Komil insongan xos va xos bo'lmagan sifatlar". Boshlovchi: Talaba Jismoniy barkamollik, aqllilik, donolik zaiflik, aqlsizlik, nodonlik, halollik, harompazlik,

samimiylik, kibr xavolik, ruhiy rivojlanganlik, ruhiy ojizlik, ahloqiylik, ahloqsizlik, odobli, odobsiz, adolatli, adolatsiz, mehnatsevarlik, dangasalik, yaxshilik yomonlik, kamtarlilik, manmanlik, sahiylik, baxillik, insonparvarlik, yovuzlik.

Eslatma: Mazkur o‘yin turini “Umumiy pedagogika” fanining barcha mavzulari bo‘yicha o‘tkazish mumkin. “Evrika” (o‘ylabtop) o‘yini, o‘yinning bu turi o‘quvchi va talabalarni fikr yuritishga, to‘g‘ri javobni topishga va xulosaga kelishga o‘ndaydi. Mashqur rus pedagogi Ya. A. Komenskiy o‘zining qaysi asarida o‘qitishning qaysi prinsipini “Didaktikaning oltin qoidasi” deb ta’riflagan.

Tarbiyaga berilgan quyidagi ta’rif qaysi pedagogning qalamiga mansub va uning qaysi asarida o‘z asarini topgan. “Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo falokat, yo saodat yo xalokat masalasidir”. Kaykovusning “Qobusnoma” asari kimga bag‘ishlab yozilgan. U qanday asarlar turkumiga kiritiladi. Shayx Sa’diy o‘zining tarbiyaga doir qarashlarida yosh novdani istaganingcha egish mumkin, lekin u katta bo‘lgach qurib qolganida egilmaydi, balki sinadi deb aytadi.

Buni pedagogik jihatdan izohlang. O‘zbek adabiyotida o‘qituvchifaoliyatini yorituvchi asar yaratilgan. Bu asar qaysi yozuvchining qalamiga mansub va uning aniq nomini ayting. Chor Rossiyasining O‘zbekistondagi general-gubernatori Skobelev shunday degan edi. “Millatni yo‘q qilish uchun uni qilichdan o‘tkazish shart emas. Uning tilini, dinini, madaniyatini yo‘q qilsang bas, o‘zi tez orada tanazzulga uchraydi”. Ushbu fikrni pedagogik jihatdan izohlang. “Xotira mashqi” o‘yini Didaktik o‘yinning bu turi talabalar tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarni mustahkamlanishidamuhimahamiyat kasb etadi. Mazkur o‘yinda o‘qituvchi tomonidan ma’lum bir mavzu yoki bo‘limga oid tushunchalar o‘quvchi yoki talabalarga yetkaziladi.

O‘quvchi yoki talabalar esa ma’lum bir vaqt (daqiqalar) orasida og‘zaki yozma ravishda xotiralarga suyangan xolda ularni bayon etishlari zarur. Masalan: “Umumiy pedagogika” fanining tarbiya nazariyasi bo‘limi bo‘yicha bo‘yicha: Tarbiya jarayoni, kamolot, komillik, tarbiyaviy ta’sir, tarbiya usuli, ibratnamuna, tarbiyaviy omillar, rag‘batlantirish va jazolash, pedagogik yondashuv, texnologik jarayon, pedagogik hamkorlik kabilar. “Ta’lim nazariyasi bo‘yicha” ta’lim, didaktika, shakl, usul, an’anaviy, noan’anaviy, loyihalash, mahorat, bilim, malaka, amaliyot, ko‘nikma, innovatsion, axborotli, tajriba ma’lumot kabilar.

“Klasster” (tarmoqlanish) o‘yini O‘yinning shartiga ko‘ra o‘qituvchi ma’lum bir umumlashgan pedagogik tushunchani doskaga yozadi, xamda o‘quvchi yoki talabalarga mazkur tushunchani ifodalovchi xususiy tomonlarini aniqlash topshiriladi. Masalan: o‘quvchi, maktab, bilim, amaliyot, pedagog kabilar. Topshiriqni quyidagicha shakl asosida berilishi maqsadga muvofik. o‘quvchi: maktab: uyushgan jamoa, — o‘qituvchilar jamoasi, lo‘quvchilar jamoasi, - ilm o‘rgatuvchi dargoh, ilm o‘rganuvchi jamoa, — tarbiya beruvchi dargoh.

Xulosa shuki, ta'limdagi didaktik o'yinlar o'quvchi va talabalarning darsdagi faolligini ta'minlaydi. Yangi ilmiy nazariy bilimlarni beraolmasada ammo yosh avlodning darsdagi qiziqishini bilim olish jarayonini fikrlash qobiliyatini, analiz va sintez (tahlil va umumlashtirish) ga o'rgatadi, ularning qobiliyat va iqtidorlarini, og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: —O'zbekiston. – 2017.– 102b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi. // Xalq so'zi, 2017 yil, 13 yanvar.
3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b
4. Lerner I. Ya. Didakticheskie osnovy metodov obucheniya. — M.: Pedagogika,1981.